



DOSTONLAR LEKSIKASINING BADIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

Jamila Xolmuradova

filologiya fanlari nomodi, Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

jamilaxalmuratova66@gmail.comi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14859769>

Аннотация: Ushbu maqolada dostonlar leksikasining yana bir asosiy vazifalaridan biri - badiiy-uslubiy vazifasi xususida to'xtalamiz. Ya'ni, dostonning badiiyligini, uning badiiy-estetik ta'sirini ta'minlashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositalari - troplar (ko'chimlar) sifatida qo'llanishi, ularning doston tilida tutgan o'rni va vazifasi izohlanadi.

Kalit so'zlar: badiiy nutq, doston leksikasi, badiiy-uslubiy, badiiy tasvir vositalari, ko'chma ma'no, epitet, juft, takroriy, sodda, an'anaviy,) perifrastik epitetlar; o'xshatish, metafora, metonimiya, o'xshatish.

Kirish

Xalq og'zaki ijodining mustaqil janri hisoblangan dostonlar leksikasini o'rganish borasida turkologiyada, jumladan o'zbek tilshunosligida ham muayyan izlanishlar olib borilgan. Ayrim ishlar dostonlar leksik vositalarini yo'l-yo'lakay yoritgan bo'lsa, ayrim ishlar to'lig'icha doston leksikasiga bag'ishlanadi. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, dostonlar leksikasini o'rganish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. Biroq, amalga oshirilgan ishlarning asosiy qismi ularda hal qilingan masalalar yaxlit muammolarga emas, dostonlar leksikasining ayrim tomonlariga bag'ishlangan.

Ushbu maqolada dostonlar leksikasining yana bir asosiy vazifalaridan biri - badiiy-uslubiy vazifasi xususida to'xtalamiz. Bunda dostonning badiiyligini, uning badiiy-estetik ta'sirini ta'minlashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositalari - troplar (ko'chimlar) sifatida qo'llanishi, ularning doston tilida tutgan o'rni va vazifasi izohlanadi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodining mustaqil janri hisoblangan dostonlar leksikasini o'rganish borasida turkologiyada, jumladan o'zbek tilshunosligida olib borilgan izlanishlar natijalariga tayanildi.

Tadqiq usuli komponent tahlil, differensial-semantik, tipologik, qiyoslash va distributiv tahlil metodlaridir. Shuningdek, maqolada ko'zda tutilgan masalalarni o'rganishda Sh.Shoabdurahmonov, A.Ishaev, X. Doniyo-rov, D.Abdurahmonov, X.Bektemirov, S. Po'zimboyev, S.Tursunov, E.Chorieva va boshqa olimlarning tadqiq usullariga asoslanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Tilda badiiylilik so'zlarning badiiy-uslubiy qo'llanishi orqali ta'minlanadi degan tushuncha nisbiydir. Chunki, doston matnida so'zlar, asosan, nominativ-tasviriy vazifada qo'llanadi, shuning uchun obrazli va obrazsiz so'z tushunchasini ishlatish maqsadga muvofiq emas. Tilda o'z ma'nosida qo'llangan so'z ham, ko'chma ma'noda qo'llangan so'z ham badiiylikka, obraz yaratishga xizmat qiladi. Faqat ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarda ular anglatgan denotatlarning o'zaro qiyosi natijasida ayni denotatlardagi muayyan xususiyatlar, belgilar bir nuqtaga jamlanib, ular haqida tasavvurlar kompleksini xotirimizda jonlantiradi. Bu orqali tilning shu asnodagi tasvirida so'zlarning o'z ma'nosida qo'llanganiga qaraganda kuchliroq ma'no aks etadi. Ko'pincha, qahramonning xarakteri ham, uning asarda tutgan o'rni ham so'zlarning nominativ-tasviriy vazifasi orqali amalga oshiriladi. Buni dostonning kichik bir parchasi orqali namoyish qilish mumkin: *"Go'ro'g'lining Gajdumbek degan og'asidan qolgan bir singlisi bor edi. Gulshahrijon deb ot berib edi. O'zi ham o'n sakkiz yoshida edi. "Go'ro'g'li tog'amning dushmani kelib, bunga ozor bermasin", - deb qal'aning qorovulxonasiga chiqib, mudom to'rt tarafga ko'z tikib, dushmani qarab o'tirar idi. Bir kuni ko'rsa: Gurjiston tarafidan bir askar kelayotir. Osmon yuzini tuman tutib, askarlar to'p otib, multiq otib, oq choyshab alam tikib, Chambilbel qal'asining atrofini qo'rchab olib tura berdi. Cho'pda, chorda, mo'rd, malaxda son bor, bu askarda son yo'q. Gulshahrijon siynasinda tobi-toqat qolmay, qorovulxonadan tushib, Go'ro'g'lining yotgan yeriga keldi"* (Xo'jyoz baxshi, X.13). Shu birgina epizodik tasvirda Gulshahrijon obrazi haqida muayyan tasavvur yuzaga keltiriladi.

Matnda birorta so'z ko'chma ma'noda qo'llangan emas. Qal'ani qurshab turgan qo'shinning ko'pligi ulardan ko'tarilgan chang, to'p va multiqlardan otilgan o'qlardan paydo bo'lgan tutundan osmon yuzini tuman tutganidan ham ma'lum.

Ijrochi tasvirni shu o'rinda ham tugatsa bo'ladi. Lekin shu o'rinda muhim bir qiyosni keltiradi: **"Cho'pda, chorda, mo'rd, malaxda son bor, bu askarda son yo'q"**. Aynan shu . qiyos tasvirni yana ham kuchaytirish orqali dushman askarlarining g'oyat ko'pligini, miqdoran hisobsizligini yuzaga keltirgan: *"Gulshahrijon siynasinda tobi-toqat qolmay, kdrovulxonadan tushib..."* parchasida Gulshahrijonning mehribonligi, jonkuyarligi ifodalangan. Bu obrazga yana qo'shimcha chizgilar qo'shilgan, lekin unda birorta so'z ko'chma ma'noda qo'llangan emas.



Bundan xulosa shuki, tilda soʻzlarning oʻz maʼnosida qoʻllanishidagi tasvir orqali yaratilgan obraz bilan ularning koʻchma maʼnoda qoʻllanishidagi tasvir orqali paydo qilingan obrazlilik orasida "oʻtib boʻlmas xitoy devori" yoʻq, ular bir-birini taʼminlashga, tinglovchida muayyan tasavvurlar kompleksini qoʻzgʻash orqali asar voqealariga olib kiradi, obrazlar tashvishiga sherik qiladi, badiiy-estetik taʼsir qiladi.

Biz quyida badiiy tasvir vositalarining asar voqealari, shaxslar kechmishi bilan aloqador holda bajargan vazifasini yoritishga harakat qilamiz.

Dostonlar tilida soʻzlarning epitet vazifasida qoʻllanishi juda keng tarqalgan. Ular, asosan, doston personajlarining tashqi qiyofasi, muvaqqat vaziyatdagi koʻrinishi, maʼshuqaning va maʼshuqning goʻzalligi, shaxslarining u yoki bu belgisining xarakter-xususiyatini boʻrttirishga, ulugʻlashga yoki kamsitishga xizmat qiladi.

Doston epitetlarini tuzilish tarkibi jihatidan sodda va tarkibli guruhlariga boʻlish mumkin. Sodda epitetlar bir soʻzdangina iborat boʻlib, tub va yasama boʻlishi mumkin. Tarkibli epitetlar soʻz birikmasidan, ayrim hollarda sifatdoshli birliklardan iborat boʻladi. Epitetlar semantik tabiatiga muvofiq tarzda gapda aniqlovchi boʻlib keladi. Ularning nazmiy asarlarda keng qoʻllanishini nazarda tutgan holda poetik aniqlovchi deb ham ataydilar.¹

Sodda epitetlar: Bu guruhga atiqador epitetlar koʻplab dostonlar uchun xarakterli soʻzlar orqali ifodalanadi:

*Osmon yuzin tutip keldi,
Turgʻil, ogʻa, tuman boʻldi.
Koʻzim qonli yosha toʻldi,
Turgʻil, ogʻa, yomon boʻldi.
(Ahmad baxshi, Qirq minglar.24-b)*

*Bu dumona borilmadi,
Borip xavar olinmadi.
Oltin kosa yoʻrilmadi,
Turgʻil, ogʻa, yomon boʻldi.
(Ahmad baxshi, Qirq minglar.24-b)*

Bu sheʼriy parchalardagi epitetlardan birinchisi Goʻroʻgʻlining jiyani Gulshahrijonning behisob, son-sanoqsiz dushmanlar kelganidan xabar berib turgandagi holati bilan bogʻlanadi. Ikkinchi epitet esa, Goʻroʻgʻlining oʻz yigitlari bilan mayxonada gʻaflat bosib yotishlariga ishora sifatida keltiriladi.

Quyidagi epitet esa Dali Mehtar tilidan aytilgan. Unda yurtga bostirib kelgan dushmanga qarshi maydonga kirish, qonli urushda ishtirok etishga ishora - **ol sharob** ichishga daʼvat ifodalangan:

*Beklarim, otlaning, sardan kechali,
Ne Xalapdan, ne Shervondan kelan bor.
Bul maydonda ol sharoblar ichali,
Ne Farangdan, Rum sharidan kelan bor.
(Ahmad baxshi, Qirq minglar, 19-b)*

Navbatdagi doimiy epitetda bu daʼvat yana ham kuchaytiriladi:

*Dali Miytar bilmas uning sonini,
Boylap olip ketdi Avazxonningdi,
Qilich urip, toʻkti qizil qonini,
Ne Farangdan, Istambuldan kelan bor.
(Ahmad baxshi, Qirq minglar.94-b)*

Eʼtibor berilsa, bu ikki toʻrtlikda ishlatilgan epitetlar oʻzaro sinonimik xarakterga ega, ularning oʻrmini almashtirib boʻlmaydi. Dostonda ularning qaysi soʻz bilan valentligi ham, uslubiy jihatdan oʻz xoslanishlariga ega.

Navbatdagi toʻrtliklarda qoʻllangan oʻzaro sinonim epitetlar ham ularning oʻrmini almashtirib boʻlmasligini koʻrsatadi:

*Gʻoʻch yigitting setorasi
Ochildi maydon ichinda.
Qilichdan qirmizi qonlar
Sochildi maydon ichinda.
(Ahmad baxshi, Qirq minglar, 21-b)*

Misr qilich kesar yalab,



Dardli ko'nglim etar talab,

Oltin kosa, gulgun sharob

Ichildi maydon ichinda.

(Ahmad baxshi, Qirq minglar. 21-b),

Doston epitetlarida qadimda qurol-yarog'larning keskirligi, mustahkamligi ularning qaerda ishlanishiga ham bog'liq bo'lganligini dalillaydi. Bunday epitetlar shu qurol-yarog'lar ishlangan mamlakat nomlari asosida yasalgan nisbiy sifatlar orqali ifodalangan. Ularning ayrimlari frazeologik iboralar tarkibida ham aks etgan. **Ustasi farang** kabi. Yuqoridagi to'rtlikda ishtirok etgan **misri qilich** birikmasi, quyidagi parchadagi **parang** epiteti bunga dalil bo'la oladi: *Go'ro'g'li oytdi: Hov, ajap yodima soldingizlar, - dep, parang chaqqini kissasinnan chig'arip oldi, beshisining qulog'ini birin-kiyin shart-shart kesip oldi...* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar.4-b).

Dostonlar tilida keng qo'llanadigan epitetlardan biri **g'o'ch** so'zidir, bu so'z qahramonlik dostonlarida ham, ishqiy-sarguzasht dostonlarda ham birday qo'llanadi. Bu epitete mard, jasur ma'nosiga ega:

G'o'ch yigitga bari darkor,

Pirdan madad bo'lan chog'da.

(Ahmad baxshi, Qirq minglar, 20-b).

G'o'ch yigit kirsavasha,

To'rtin yig'ip, beshin ko'zlar.

(Ahmad baxshi, Qirq minglar, 21-b).

Haromiliq g'o'ch yigita yarashmas,

Osang nasihatim ketma, Go'ro'g'li!

(Xo'jyoz baxshi. Xirmondali.9-b)

Ishqiy sarguzasht dostonlar tematikasiga muvofiq ravishda epitetlarning vazifasi ham ma'shuqaning turli xislatlarini ta'riflashga bo'ysundiriladi.

Quloq solip, eshit, ey parizotim!

Biza nozli yordan xavor kelipti.

(Xo'jyoz baxshi. Xirmondali.7-b).

Mening bu dali ko'nglima

Xumor ko'zli yor ko'rinur.

(Xo'jyoz baxshi. Xirmondali.17-b)

Karam o'g'lon oytti: "Men yaxshi aytsam, o'ldirajak, yomon aytsam ham o'ldirajak". *Qirmondali-ning oq bilakina, olma yonoqina toza bo'qoqina nazar etip, bir so'z oytti.* (Xo'jyoz baxshi. Xirmondali.41-b).

Xitoyi barmoqdan, xinali qo'ldan,

Tutsam o'ldirarsan, tutmasam o'lam.

(Xo'jyoz baxshi. Xirmondali. 42-b).

So'nggi misralardagi **xitoyi barmoq** birligi diqqatni jalb etadi, bizning nazdimizda, bu epitete barmoqning nozikligiga ishora sifatida paydo bo'lgan.

Ayrim o'rinlarda ma'shuqaning ta'rifi munosabati bilan bir to'rtlikning o'zida bir necha epitetlar silsilasi uyg'un holda keladi.

Yuzlari munavvar, qoshlari kamon,

Ko'rgan oshiqning oqili hayron.

Gul yuzini ko'rdim, bir moyitobon

G'amzali, ishvali, jilvali keldi.

(Xo'jyoz baxshi. Xirmondali. 31-b).

Bunday o'rinlarda epitete vazifasida kelgan so'zning grammatik vazifasi bilan mantiqiy vazifasida nomuvofiklik yuzaga kelishi kuzatiladi: **munavvar, kamon** epitetlari kesim vazifasida, **moyitobon** ega vazifasida, **g'amzali, ishvali, jilvali** hol vazifasida bo'ladi. Lekin epitetlarning barchasi mantiqan ma'shuqaning aniqlovchisi ekanligi botinam his etib turiladi. hatto, **jallod** so'zi ham epitete epitete sifatida yorning go'zalligini ta'riflashga xizmat qildiriladi. Masalan:

Oshiq Oydin aytur bir yordi ko'rdim,

Jallod ko'zli hayron qolurdi ko'rdim.



(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali.32-b).

Ayrim epitettar dostonning bir necha o'rnida takroran qo'llanilsa ham, o'ziga xos uslubiy vazifani ado etadi. Obrazning muayyan holati bilan uning ayrim harakatlaridagi nomutanosiblik orqali tinglovchida yengil kulgi qo'zg'atishga xizmat qilishi ham mumkin: *Qirmondali Ko'ro'g'lining ustina qoraz juklaganday minib oldi. Ko'ro'g'li uning tiyinda gapi qisilib, qo'rqib yotdi. Qo'rqib tursa ham, Ko'ro'g'lining eki ko'zi Qirmondalining oq bilakinda, ali yonoqinda, toza bo'qoqinda...* (Xo'jyoz baxshi, X. 16). E'tibor berilsa, bu epitettar ishlatilgan tasvirning biri Karam o'g'longa tegishli, ikkinchisi Ko'ro'g'luga tegishli, lekin boshqa-boshqa o'rinda bo'lsa ham, qiyin vaziyatda qolgan personajlar tasviriga taalluqli.

Bulardan tashqari, dostonlar tilida juft va takroriy epitettar ham qo'llanadi. Sodda epitettarning ko'proq bilinib turadigan jihati ularning an'anaviy epitettar ekanligidir.

Uzra dog'larning boshinda

Namli-namli qor ko'rinur.

Mening bu dali ko'nglima

Xumor ko'zli yor ko'rinur.

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali.17-b).

Qurbon bo'sam shirin-shakar tillara,

Ajab o'g'lon bog'a sayla gelibdi.

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 39-b).

Baland-baland dog'dan oshdim,

To'li daryoday toshdim.

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali.4-b).

Tarkibli epishetlarning aksari ikki, uch va undan ortiq komponentli bo'lib, asosan **-li** affiksi orqali yasalgan sifat boshqaruvidagi birliklardan, sifatdosh oborotlaridan, qaratqich-qaralmish shaklidagi perifrastik ifodalardan va ba'zan forscha izofali birliklardan tuziladi. Ular qam, sodda epitettarda kuzatilganidek, shaxslarning turli belgi-xususiyatlarini belgilashga, hodisalarning muayyan vaziyatdagi qiyofalari, ko'rinishlarini xarakterlashga xizmat qiladi.

a) -li qo'shimchasi bilan yasalgan sifat boshqaruvidagi epitettar.

Mazkur guruhdagi epitettar "Qirq minglar" dostonida Go'ro'g'li yigitlarining qaddi-bastini, jasoratini xarakterlashga xizmat qiladi:

Yigitlarim bordur bastli-bayoqli,

Qora qush qanotli, arslon yurakli.

Sara, turna tilli, samar buyrakli

Yog'rini qalqonli sherlarim bordur.

(Xudirgan baxshi, Qirq minglar.12-b)

Ushbu dostonda dushman tarafning qo'shinlar tarkibi ta'rifiga bagishlangan misralarda bunday epitettar salbiy ma'noda emas, balki ijobiy munosabat yo'sinida beriladi. Bu holat mazkur ta'rifning raqiblar vakili tomonidan aytilishi bilan bog'liq.

Qirq mingi oshpazdir, tilla toboqli,

Qirq mingi o'glondir, bodom krbokli,

Qirq mingtasi kurtdir, og'zi qovoqli,

Doho, qirq ming burni qilli kelmishdir,

Shodanam boshqadir, mennanam boshqa.

(Ahmad baxshi. Qirq minglar. 17-b).

Qirq mingi baxshidir, alinda sozi,

Doho, qirq ming shirin tilli kelmishdir.

(Ahmad baxshi. Qirq minglar.17-b).

Qirq mingi o'risdir, qirq mingi hushyor,

Doho, qirq ming zarbop to'nli kelmishdir.

(Ahmad baxshi. Qirq minglar.18-b).

Ayrim an'anaviy epitettarning doston tilida ba'zi komponentlarini tahrir qilish - o'zgartirish ham mavjud: **o'n to'rt kunli oy** epiteti tarkibidagi **kunli** komponenti **kechali** so'zi bilan almashtirilgan. Bu ham doston ijrochilarining matn ustida ishlash jarayonidagi mehnati natijasi sifatida baholanishi mumkin:



*O'n do'rt kechali oy kelib,
Xusni davlatli boy kelib,
Duvarakdan bir joy kelib,
Tushdi daryoyi ummona..*

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 19-b).

Ayni shu epitetning qahramonlik dostonida yigitlarga nisbatan qo'llanishi ham kuzatiladi, yigitning husni ta'rifiga moslashtiriladi:

*O'n to'rt kunli oy shakllari,
Qirq yigitim to'kulali,
Avazning zar kokillari*

Sarpillar maydon ichinda.

(Ahmad baxshi. Qirq minglar.21-b)

Epitetning bunday shaklga ega bo'lishi she'rdagi vazniy muvofiqlik talabi bilan yuzaga kelgan: **kunli, kechali** so'zi qo'llansa, hijolar ortib ketib, turoqlar guruhlanishida saktalik paydo bo'ladi. Ijrochi ushbu so'zlardagi **-li** qo'shimchasini **to'rt** so'ziga qo'shib, so'zni tashlab yuborgan. An'anaviy, barcha uchun tanish bo'lgan epitetdagi qayta shakllantirish uning tushunilishiga xalaqit bermagan. Bu hol baxshining ijro asnosida juda tez bir qarorga kelishi, til leksik birliklari valentligiga zarur o'zgarish kiritish mahoratini ko'rsatadi.

b) sifatdosh oboroti bilan shakllangan epi- tetlar. Ma'lumki, sifatdosh yasovchi **-gan** qo'shimchasi fe'l turkumidagi so'zning o'zak qismiga qo'shilib, uning kategorial mansubligiga o'zgarish kiritadi: harakat bildiruvchi so'zni belgi-xususiyat bildiruvchi sifat turkumi kategoriyasiga yaqinlashtiradi. Bunday o'zgarish uchragan so'z o'zidan oldingi ko'plab so'zlarni boshqarib, tilning xarakter-xususiyat ifodalash imkoniyatini beqiyos tarzda kengaytiradi. O'z navbatida, nutqning tasviriy imkoniyatini ham kengaytirib, nutq ob'yektini baholash semalari bilan ta'minlaydi, sub'yektning nutq momentidagi pozitsion mavqei ham belgilaydi. Sanab o'tilgan jihatlar doston tili uchun ham juda qo'l keladi. Natijada sifatdosh oborotlari doston tilining badiiy vositalariga aylanadi.

Suv bo'yida turg'on go'zal,

Biza bir suv ber ichali.

Qoshi-ko'zin suzgan go'zal,

Biza bir suv ber ichali!

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 11-b)

Egri dema, sanga to'g'ridir so'zim,

Dushmanni ko'rganda quvonar ko'zim,

Magar otim mudrab, yiqilsam o'zim,

Ustimda oh chekkan pirlarim bordir.

(Ahmad baxshi, Qirq minglar.98-b).

"Qirq minglar" dostonida Avazxon Go'ro'g'lining otini, nayzasi va qurollarini olib, dushmandan xabar olgani boradi va asirga tushib qoladi. Go'ro'g'li bir nasli past otga minib, qo'lga bir eski kurakchani olib, Avazxonni va G'irotni qutqargani boradi. Go'ro'g'lining kapchaga bergan ta'rifi uchun ishlatilgan epitetlarning barchasi sifatdosh oborotlaridan tuzilgan:

Unda Go'ro'g'li oytdi:

- Bu kapchada xislat ko'p. Bu kapcha - yetti yil yer tagida yotgan kapcha, yer suvini ichgan kancha.

Yuzini zang bosgan kapcha, sarkopga ham yetgan kapcha, quloch, yarim quloch, chorak dasta solingan kapcha. O'zi g'anim, uchun tuzatilgan kapcha, g'animga qarab siltab qo'yg'animga, g'animga qorniga qarich nish kirib, g'alt-g'alt sas beradigan kapcha!(Ahmad baxshi, Qirq minglar.19-b).

Kapcha ta'rifi uchun ishlatilgan bu epitetlar faqat kapchani xislatini ochish uchun xizmat qilib qolmaydi, balki tadbirkor mard odam qo'lida dahshatli qurolga aylanishi mumkinligiga ham ishora qiladi. Bundan tashqari, ularda Dali Mehtar ko'nglini ko'tarishga xizmat qiluvchi yengil yumorni ham yuzaga keltiriladi.

v) **Perifrastik epitetlar** - doston tilidagi epitetlarning ayrimlari perifrastik bo'lib, ularning komponentlari qaratqich-qaralmish tipidagi birliklar bilan shakllanadi. Go'ro'g'lining Uchyluduz to'qqa qarata aytgan so'zlarida shunday epitetlar mavjud, hatto, unga ma'shuqalarga nisbatan aytilgan epitetlar ham qo'llanishi mumkin:

Dog'larning ichinda dog'lar shoyisan (shohisan),

Hurlarning ichinda malak moyisan (mohisan),



*Hardam Go'ro'g'lining manzilgoyisan,
Uch yulduz dog nechun getmas dumonim?*
(Xudirgan baxshi. Qirq minglar.26-b)

Epitetlardagi ikkinchi komponentning *shoh* va *moh* so'zlari bilan ifodalanishining sababi *shoh* ning jamiyatdagi mavqei bilan asoslansa, *moh* so'zining an'anaviy go'zallik timsoli sifatidagi mavqei bilan asoslanadi.

"Xirmondali" dostoni tilidagi quyida berilgan epitet esa oshiq-ma'shuqning mavqei va go'zalligini ajratib ko'rsatishga, ulug'lashga xizmat qiladi:

*Man o'zim qizlarning xoni,
O'ltirdim uch yuz polvondi.
Sen ko'rdingma mastonani?*

Oshiqlarning sultonisan.

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali.71-b)

Demak, bu perifrastik epitetlar *shoh*, *xon*, *sulton* so'zlari semasidagi yagona hukmdor ma'nosiga tayangan holda yaratilgan. Epitetlarning tarkibida ishtirok etgan sifatlovchi komponentlar narsaning kimga va jamiyatda qanday mavqega ega shaxsga qarashli ekanligini ham ko'rsatib, ishora qilib turadi. *Qupton vaxta Ko'ro'g'li Usta Bodomding bog'ini birin-birin qidirib Borayotir idi, bir sarhovuz bo'yina bordi. Sarhovuz bo'yinda bir o'tov tutuvli, kumush karagali, oltin uvukli* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 68-b). Albatta, bunday epitetlar sarhovuz bo'yidagi o'tovning boy-badastir oilaga tegishli ekanligini dalillab turadi.

Bundan ko'rinadiki, doston tilida qo'llangan epitetlar sodda va tarkibli ko'rinishlarda bo'lib, ularning ko'pchiligi an'anaviy tarzda xalq qo'shiqlari va dostonlari matnida deyarli o'zgarishsiz ishlatiladi, ularning asosiy vazifasi shaxs, narsa-hodisalarning doimiy yoki muayyan vaziyatdagi shakli-shamoyili hamda go'zalligini, mavqegini xarakterlashga, ulug'lashga qaratilgan bo'ladi.

Tilning uslubiyligini ta'minlashda eng ko'p qo'llanadigan badiiy tasvir vositalaridan biri - o'xshatish hisoblanadi. U "Ikki narsa yoki hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ko'rsatib beradi".² O'xshatishni obraz yaratishning eng sodda ko'rinishi sifatida baholash mumkin. Chunki, uning tarkibida bir-biriga o'xshatilayotgan narsa va predmetning nomi qatnashadi. Bunda ularning biri o'xshatilayotgan predmetni, ikkinchisi o'xshatish obrazi bo'lgan predmetni anglatadi, bu holatni boshqacha nomlasak, biri o'xshatish ob'yektini, biri o'xshatish obrazini bildiradi. O'zaro o'xshatilayotgan predmetlarni bu jarayonda bog'lab turadigan o'zi esa o'xshatma belgidir.

O'xshatishdagi ushbu komponentlarning matnda to'liq o'zini namoyon qilib turishi jihatidan, ya'ni sintaktik jihatdan to'liq shakllanishi hisobga olinsa, ularni sintaktik figura sifatida ham qabul qilish mumkin, agar sintaktik jihatdan to'liq shakllangan o'xshatish tarkibidan o'xshatish ob'yekti nomi bilan o'xshatma belgi nomi olib tashlansa, metafora yuzaga kelishi hisobga olinsa, o'xshatishni ko'chimlar qatoriga kiritish zarur bo'ladi. O'xshatishning shakllanishidagi bu belgilarga ko'ra, ayrim tadqiqotchilar uni ko'chimlar qatoriga ham, sintaktik figuralar qatoriga ham qo'shmaydilar.³ Biz ushbu hodisaning metaforaga asos bo'lishini nazarda tutamiz va uni ko'chimlar qatoriga qo'shamiz.

O'xshatishga bag'ishlangan maxsus ish muallifi M.Mukarramov nutqda qo'llanish e'tibori bilan o'xshatishlarni an'anaviy va individual guruhlariga ajratilishini ko'rsatib o'tgan.⁴ Bu jihatdan baholanadigan bo'lsa, doston tilidagi o'xshatishlar- ning asosiy qismini an'anaviy o'xshatishlar tashkil etadi. Doston tilida qo'llangan o'xshatishlarning ayrimlari, deyarli barcha dostonlarda qo'llanishi mumkin, ularning xalq qo'shiqlarida ishlatilishi ham keng tarqalgan. Biz bu o'rinda an'anaviy o'xshatishlarga to'xtalmaymiz, faqat "Qirq minglar" va "Xirmondali" dostonlari uchun xarakterli, doston voqea va hodisalari tasvirida muayyan vazifa bajarish uchun xizmat qilgan o'xshatishlar haqida o'z mulohazalarimizni aytib o'tamiz.

"Qirq minglar" dostonida qo'llangan o'xshatishlarning aksariyati dushman tomonning vakillari tushib qolgan vaziyatni xarakterlashga bo'ysundirilgan. Dostonda Avazxon va G'iro't qo'lga tushib qolgach, Go'ro'g'li bir nasli past otni minib, qo'lga loykapchani olib, qurol-yaroqsiz holda ularni qutqarishga o'tlanadi, o'zini Go'ro'g'lining xizmatkori sifatida tanishtiradi, hiyla ishlatib, Hasanxonning qirq yigitini ham o'ldiradi. Hasanxonni tiriklay tutib, quloq-burnini kesib, uning qirq yigitining ham quloq-burnini kesib, bir chuvolga (qopga) solib, otga o'ngartirib, "Ko'rgan-bilganingni Xunxoringga aytib ber", - deb haydab yuboradi. Hasanxonning bu holati shunday o'xshatish bilan beriladi: *Kallasi ro'yan dugulan soqining sopi yali, ovzi-burni qon yalagan itday, ko'zlari avloning chirosinday qizil-qora qon. Yalt-yult yo'rtib borib, Xunxorga salom berdi.* (Ahmad baxshi, Qirq minglar, 19-b).

Orada kechgan dialog orqali yana bir o'xshatish ishlatish vaziyati yuzaga keltiriladi:

Hasanxon aytdi:



- Go'ro'g'lining yoniga bormang!
- Ne bo'ldi? Qirq yigiting nerda?
- Qirq yigitim qirilib qoldi.
- Qirilgan bo'lsa, nishonasi bormi?
- Nishonasi bor, quloq-burnini keltirdim.
- O'zingning quloq-burning qay yerda?
- O'zimmikida shuning ichida bordir.

Shunda Xunxorshoh:

- Zang'arniig quloq-burnini topib o'zina yopishtiring, - dedi.

Poshsholikdan anjomlaship yurgan taviplar bir chuvol quloq-burunni chetga chiqpg'arip **piyoz to'kkan yali** etip, to'gip tashadi.

Hasanxoniiig o'zini **jilli tutganday** etip, kuloq-burunlarding yonina olip bordi.

- Quloq-burningni o'zing tani, - dedi.

Unda Hasanxon aytdi:

- Shu chetda yotgan **sholikornipg zog'omasi yali** asli quloq biznikidir, keltir bunda. Ana bular kuloq-burunni olib, yopishtira bersin, endi so'zni Go'ro'g'lidan eshiting. (Ahmad baxshi, Qirq minglar. 20-b).

Bu o'rinda qo'llangan o'xshatishlar shu dostonning o'ziga tegishli o'xshatishlar bo'lib, boshqa dostonlarda uchramaydi. E'tibor bilan qarasangiz, oradagi dialoglar orqali o'shatishdan yuzaga kelgan ekspressivlik yanada kuchaygan, yanada kulgili vaziyat kasb etgan.

Biz keltirgan o'xshatishlar Ahmad baxshi Matnazar o'g'li variantidan olindi. Albatta, dostonning boshqa variantlarida bu o'xshatishlar muayyan o'zgarishlarga, boshqacha ko'rinishlarga ega bo'lishi, improvizatsiya tasirida boshqa o'xshatishlar bilan to'ldirilishi ham mumkin. "Xirmondali" dostonida ham o'xshatishlar mavjud bo'lib, ularning ichida "Qirq minglar" dostonida qo'llangan o'xshatish ham uchraydi, lekin bu o'xshatish boshqa vaziyatga nisbatan ishlatilgan. Dostonda aytilishicha, Ko'ro'g'li birinchi safar borib, Xirmondalini yengolmagach, Og'a Yunusning maslahati bilan Oshiq Oydinga qo'l berib, murid bo'ladi. Oshiq Oydin Ko'ro'g'lining nima maqsadda so'filikka kirgani sababini eshitgach, Xirmondaliga uylanish uning taqdirida yo'qligini, Xirmondalini Karam o'g'longa nasib etishini aytadi. Bunday manfaatdan benasib bo'lishini, bilgan Go'ro'g'lining Oshiq Oydinga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Oshiq Oydin pir Karam o'g'lon bilan Xirmondali yurtiga yo'l oladi. Piri axtarib kelgan Go'ro'g'lining kayfiyati buzilib, "So'pilar, silar pirdi yo'qlap o'tiripsanmi?" - dep, u so'pini unda urdi, bu so'pini bunda urdi. U sallani unda zingdi, bu sallani bunda zingdi. Machit-madrasaning ichini **piyoz to'kkanday etti**" (Xo'jyoz baxshi, Qirq minglar, 34-b).

Hatto, yo'lda ketayotgan purning yoqasidan olib, so'pichilikda yurgan har bir kuni uchun besh tangadan pul ham undiradi. Dostondagi bunday epizodlardan Go'ro'g'lini ateistga chiqarish noto'g'ri, albatta. Bunday tasvirlar Go'ro'g'lining, u qanchalik g'ayritabiiy xislatlarga ega bo'lmasin, oddiy insonga xos xususiyatlardan begona emasligini ko'rsatib turadi.

Dostonda qo'llangan o'xshatishlar qanchalik salbiy bo'lib ko'rinmasin, undan kuzatilgan maqsad Go'ro'g'lini kamsitishga xizmat qilmaydi, balki unga nisbatan beg'araz kulgi qo'zg'atishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, Go'ro'g'li, shartga ko'ra, Xirmondalini kurash tushib yengishga harakat qiladi, lekin buning uddasidan chiqolmaydi. Aksincha, o'zi Xirmondalining ostida qoladi: **Qirmondali Ko'ro'g'lining ustina qoraz juklaganday minip, o'ngirip Ko'ro'g'li Qirmondalini tiyinda gapi qisilib, qo'rqip yotti. Qo'rqip yotsa ham, Ko'ro'g'lining eki ko'zi Qirmondalining oq bilakinda, ali yonoqinda, toza bo'qoqinda...** (Xo'jyoz baxshi. Xirmondali. 16-b).

Go'ro'g'li Xirmondalini axtarib, Karam o'g'lon yurti - Shirvonga otlangan paytda Safar ko'saga o'zining beklardan yashirin ketayotganini, u kelguncha, yurtga ko'z-quloq bo'lib turishini tayinlaydi. Shunda Safar ko'sa ham o'ziga bir qiz olib kelishni Go'ro'g'lidan iltimos qiladi, keltiriladigan xotinning ta'rifini ham aytadi. Shunda Go'ro'g'lining nutqida shunday o'xshatish qo'llanadi: **"Dol bo'yin ham tovilmasa, semiz qizam tovilmasa, yildirim urg'an bir baytaldin oriqa yo'liqsang, nishetamiz?"** (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 64-b). Bu o'xshatish ham beg'araz bir kulgi qo'zg'atishga qaratilgan.

"Qirq minglar" dostonida qo'llangan o'xshatishlardan biri va eng xarakterlisi **qimmatchiliqning g'allasinday** o'xshatishidir. O'xshatishga xalq boshiga tushgan qimmatchilikning azoblari va og'irliklari singdirilgan. Qimmatchilikning eng og'ir jihatlaridan biri ochlikdir. Kishilar pulga ham, tillaga ham g'alla topa olmagan, chunki ob-havo qiyinchiliklari, qurg'oqchilik, turli kutilmagan ofatlar natijasida g'alla unmagan. Aholi esa jon saqlash umidida ming azob bilan o'rib-yig'ib olingan paykallardan to'kilgan, sochilgan donlarni ham terib olishga, kuniga yaratishga majbur bo'lgan: **Go'ro'g'li qirq yigitga bosh bo'p, qizilbosh askarlariga qarap ot soldi. Bir urush bo'ldi. Ot chopildi, qon to'kildi. Ana u kun sahargacha urush**



bo'ldi. Go'ro'g'lining qirq besh yeridan o'q tegdi. G'irotdan judo bo'p yiqilip qoldi. Go'ro'g'li yarador bo'p, G'irotdan judo bo'p, qirq yigitini izlasa, yigit tugul zambil ham yo'q. Yigitlar **qimmatchilikning g'allasinday**, har qaysisi bir yonga og'ishib ketgan ekan.

(Xudirgan baxshi, Qirq minglar.23).

Arzonchilikning g'allasi yali o'xshatishi esa oldingi o'xshatishning antonimi sifatida yuzaga kelgan. Arzonchilik hukm surgan yillarda ob-havo yaxshi kelgan, yog'in mikdori ko'p bo'lib, lalmikor yerlarda ham yuqori hosil yetishtirilgan. Aholi ehtiyoji uchun g'alla serob bo'lgan, mo'l-ko'lchilik hukm surgan. Birinchi o'xshatishda dahshatli urushda Go'ro'g'lining qirq besh yeridan o'q tegib, behush yiqilgan paytida yonida yigitlaridan birontasi qolmagani tavsiflangan. Ikkinchi o'xshatishda Go'ro'g'lining tirik ekanligi ma'lum bo'lganidan keyin qirq yigitining yon-atrofdan kelib, yig'ilishi, jamlanishi xarakterlangan: *Ana Go'ro'g'li bu so'zni aytg'andan so'ng, qirq yigit, arzonchilikning g'allasi yali, har qaysisi bir yondan yetip keldi. Go'ro'g'li qirq yigiti minan bir oxshom shu yerda yotti. Go'ro'g'lining yaralari yulduz ko'rip, sihat topti. Tong otti, gun chixti* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar.23-b).

Ko'rinadiki, o'xshatish qo'llashdagi har ikki dostondagi xususiyatlar bir-biriga yaqin, ular asosan, yengil kulgi qo'zg'atishga xizmat qiladi. Adabiy tilda qo'llanadigan o'xshatishlarda o'xshatish obrazi bilan o'xshatish ob'ektidagi muayyan belgini bir-biriga uyg'unlashtiruvchi vosita **-day, -dek** hisoblansa, dostonda bu vazifani **-day, -dayin, yali (yanglig')** bajaradi. O'xshatishlarda o'xshatish ob'ekti ham, o'xshatish obrazi ham xalq tilidan, uning og'zaki nutqidan olingan. Bu doston tilining xalqchilligini ta'minlagan.

Metafora tilshunoslikda yashirin o'xshatish deb ham sifatlanadi.⁵ Bunda ular metafora va o'xshatishning matnda muayyan sintaktik pozitsiyada bo'lishini nazarda tutadilar, chunki metaforada o'xshatishda mavjud o'xshatish predmeti, o'xshatish obrazi, o'xshatma belgi kabi komponentlardan faqat o'xshatish obrazigina saqlanib qoladi, qolgan komponentlar tushirib qoldiriladi.

Metafora bilan o'xshatishning yaqinligi shundaki, ularning ikkisi asosida ham ayrimlik, xususiylik va umumiylik dialektikasi yotadi. Turli predmetlardagi umumiylik turli jihatlarida ko'zga tashlanadi, muayyan umumiylik asosida bir predmetning nomi ikkinchisiga ko'chiriladi, asli tasvirda nazarda tutilgan predmetning nomi bo'lgan so'z matnda yashirin qoladi, qayta nomlanish ro'y beradi. Lekin bu qayta nomlanish insonlarning bir-birini tushunishiga monelik qilolmaydi, chunki predmetlarning o'zaro o'xshashligidan ular o'z tajribasi, hayotdan olgan taassurotlari orqali tanish bo'ladi.

Dostonlar tilida metaforaning ham o'z o'rni bor. Bu badiiy tasvir vositasi orqali sig'imdor obraz yaratiladi, nutq ob'yekti tavsiflanadi, uning muhim bir belgisi bo'rttiriladi. Metaforalarning ayrimlari evfemistik ifoda sifatida yuzaga kelsa ham, ularning ko'p qo'llanishi natijasida o'z evfemik xususiyatini yo'qota boradi. Masalan:

Oh, sening ustingda ko'sh anoring bor,

Shu ko'sh anoringdi tutmaqa keldim.

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali.25-b).

Bu metaforaning xalq qo'shiqlarida ishlatilishi ham keng kuzatiladi:

Men ko'rganda kichkina bola eding, yor-yor,

Qo'sh anoring chiqibdi to'shiig yorib yor-yor.

Keltirilgan matndagi metaforalar shakliy o'xshashlik, ya'ni umumiylik tufayli yuzaga kelgan. Bundan shunday xulosaga qelish mumkinki, dostonlar matnida qo'llangan nazmiy parchalar bilan xalq qo'shiqlarining aloqasi juda qadimdan mavjud. Ularning har ikkisi folklorning mustaqil janri hisoblansa ham, badiiy vositalardan foydalanishda hamisha bir-birdan oziqlanib kelgan.

Ayrim metaforalar bir giperonim tushuncha tarkibiga kiruvchi giponimik nomlar ifodasi bo'lgan juft so'zlar orqali ifodalanadi. Ular boshqa-boshqa tushunchalar bo'lsa ham, bir-biriga nisbatan aloqador umumiylik asosida giperonim tushunchani anglatib turadi. Bu jihati ularni metonimiyaga yaqinlashtiradi. Quyidagi dialogda ayni jihat aks etgan:

Bu besh otli so'radi:

- Sen nerli vo'lasan?

-Men Tabriz yurtini odami bo'laman.

Bulardan Go'ro'g'li so'radi, bular aytti:

- Bizar gurjistonliqimiz.

Onda Go'ro'g'li aytti:

- Gurjiston minan Tabriz doyili-jiyan bo'sa karak?

Unda bular turip aytti:

-Unday bo'laturg'on bo'sa, bizara doyi bo'l-ding. (Xudirgan baxshi, Qirq minglar.3-b).



Bu o'rinda **doyli-jiyan** metaforasi Go'ro'g'li tomonidan qo'llanib, raqib tomon vakillari - besh yasovulning ishonchini qozonish, ularni chalg'itish uchun xizmat qilgan. Juft so'z qarindosh ma'nosida qo'llangan. Ushbu metafora Go'ro'g'lining o'ziga yarasha ayyor va quv odamligini xarakterlashga xizmat qilgan.

Quyidagi metafora doston tilida Go'ro'g'lining tadbirkorligi, har qanday qiyin vaziyatlardan osonlik bilan chiqib keta oladigan shaxs ekanligini ko'rsatishga xizmat qilgan. ...*Hasanxon o'rninnan turip, Go'ro'g'lidan xabar so'radi. Unda Go'ro'g'li aytti:*

- *Men Go'ro'g'lining xizmatkori bo'laman.*
- *Go'ro'g'lini o'zi nerda?*
- *O'zi qal'ada.*
- *Qal'ada bo'sa, sen oldinga kapcha olip, nerga borasan?*

Unda Go'ro'g'li aytti:

- *Shu yon tarafdin bir qizil suv oqib kelotir. "Qizil suvning aldina chig 'ip, qaychi ol," - dep buyurdi. Men qizil suvning aldina chiqip, qaychi olmag'a boryotirman* (Ahmad baxshi, Qirq minglar.13-b).

Go'ro'g'li tilida qo'llangan **qizil suv** metaforasi dushman qo'shinlarining qizilboshlar ekanligi bilan motivlashadi. Go'ro'g'li go'yo o'zini bilmaslikka olib, vaziyatning mohiyatini juda yaxshi bilgan holda, dushmanni chalg'itish uchun shu metaforani qo'llaydi, shu bilan birga, o'zining qo'lga kapcha olib, nima uchun ketayotganini ham asoslaydi. Dushmanda bunga shubha tug'dirmaslikka erishadi.

Dostonda qo'llangan metaforalarning ayrimlari dostonlarning juda qadimiyligini ham ko'rsatib. turadi. Bundan ko'rinadiki, metaforalar ham xalqimiz tarixi kabi juda qadimiydir. Masalan:

*Oshiq o'ltirmak savobdir,
Sening husning ajab oqdir.
Har mammang bir yoyloqdir,
Chig'ib yoylasam, netasan?*

(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 70-b).

Yoyloq metaforasi qadimgi **yoy** so'zining **yoz** ma'nosi bilan aloqador. Undan yasalgan **yoylamoq** fe'li ham shu so'zdan yuzaga kelgan. Bunga boshqa yerdagi dostonchilik maktabi vakillarining ijodidan ham misol keltirish mumkin. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Ravshan" dostonida shunday misralar bor:

*Mening gulzorimni sayron aylading,
Gulzorimda bulbul bo'lib sayrading.
Mening to'shim, sening doim yayloving,
Yaylay ko'rgin, yorim, davron seniki.*

Yoylog' so'zining yuzaga kelishi: **yoy - yoy + la = yoyla + q = yoyloq**. Bu so'zning M.Qoshg'ariy lugatida ham qayd etilganini nazarga olsak, metafora ham juda qadimiydir. Hozirda biz Yalta deb yuritiladigan shaharning nomi ham shu so'zga aloqador, asli Yaylatog' bo'lgan. M.Shayxzodaning ushbu she'rida bunga ishora bor:

*Yaylatog'niig bag'rida esa
Sanatoriy "O'zbekiston" bor.
O'zi ajab gishtin bir qissa,
O'tmishlardan guvoh - xabardor.*

Quyidagi metaforalar Go'ro'g'li tomonidan "dunyodagi tig'larni ta'rif etib" aytgan so'zlarida qo'llangan:

*Yoy aytur, sakrab bo'karman,
Nayza aytur, men navkarman,
Purkitip qonlar to'garman,
Otim yildam bo'lan chog'da.*

(Xudirgan baxshi, Qirq minglar.19-b).

*Qalqon aytur, men qal'aman,
Taslim bo'lmasa, baloman.
G'o'ch yigitlarga bo'laman,
Serpip-serpip olan chog'da.*

(Xudirgan baxshi, Qirq minglar.20-b).

Xullas, dostonlar tilida qo'llangan metaforalar dostonning badiiy quvvatini oshirishga, qahramonlarni u yoki bu belgisini xarakterlashga xizmat qiladi.⁵ Ularning ko'pchiligi dostonlar uchun ham, xalq qo'shiqlari uchun ham umumiydir. Ayrimlari esa muayyan bir dostonga xos (**qizil suv** kabi).



Dostonlar tilida qo'llanuvchi metonimiyalar adabiy tildagi metonimiyalardan farq qilmaydi. Tilshunoslikda qayd etilishicha, bu ham "nom ko'chish" turlaridan biri bo'lib, unda "narsalar, belgilar, harakatlar o'rtasidagi aloqadorlikka (bog'liqlikka) ko'ra nom ko'chishidir".⁶ Bunday o'zaro aloqadorlikka asoslangan nom ko'chishi metaforadagidek yaqqol ko'zga tashlanib turmaydi. Metonimiyadagi nom ko'chishi tadrijiy tarzda kechadi.⁷ H.Shamsiddinovning qayd etishicha, bunday yo'l bilan nom ko'chishi orqali so'zlarning o'z ma'nolaridan farq qiluvchi funksional ma'nolar yuzaga keladi. Bu ma'no o'z navbatida, boshqa bir tushunchaning nomi bo'lgan so'z bilan sinonimik munosabatni yuzaga keltiradi.⁸

Dostonda qo'llangan metonimiyalarning xarakterli jihatlaridan bir og'zaki so'zlashuv nutqiga xosligida ko'rinadi. Bunday metonimiyaning namunasi sifatida *yon* so'zining *cho'ntak*, *kissa* ma'nosida qo'llanishini keltirish mumkin.

*Qirq mingi to'pchidir to'bin otuvchi,
Qirq mingi savdogar suni sotuvchi,
Qirq mingi sop bedov ko'sha eltuvchi,
Doho qirq ming yoni pulli galmishdir
Shodanam boshqadir, mennanam boshqa.*
(Xudirgan baxshi, Qirq minglar.43-b)

Yon so'zi *cho'ntak*, *kissa* ma'nolarida qo'llanilishi cho'ntakning kiyimning yon qismiga o'rnatilishi bilan motivlashadi.

Tomoq so'zining *ozig-ovqat*, *yegulik* ma'nosida qo'llanishi so'zlashuv nutqiga xosdir. Bu so'z ayni ma'noda doston tilida ham qo'llangan: *Oshiq Oydin pir 360 so'pining o'rta yerinda o'tirip, ko'rgan tushlarini bir-bir bayon etti... Muning ichinda tomoq uchun kep yotqon so'pilar bor idi. Tomoq uchun kep yotqon so'pilar aytti: "Ay, pirim, bu tushingdi bizar bildik"* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali.31-32-betlar).

Sifatdosh oboroti tarkibida qo'llangan *tomoq* so'zi Oshiq Oydin pir atrofiga yig'ilgan so'filarning ko'pchiligi kun o'tkazish uchun so'filik qilishiga ishora sifatida qo'llangan.

Aynan dostonlar tiliga xos bo'lgan metonimik ma'noda qo'llanuvchi so'zlardan biri "*so'z*"dir. Uning dostonlar tilidagi asosiy vazifasi nasriy matn bilan nazmiy matnni bog'lashda ko'rinadi, albatta, personajlar tilidan aytiladigan nazmiy matnga ishora qiladi. Ayrim o'rinlarda *so'z* o'rnida *gal* so'zi ham qo'llanishi mumkin. Bunday qo'llanishning sabablari ham ayon: so'zning g'azal bilan, g'azalning sher bilan aloqadorligi orqali motivlashadi. Quyidagi parchalarga diqqat qiling: *Ko'rsa, Go'ro'g'li hali uyxuda yotg'an akan. Gulsha:rijon uyda turip, Go'ro'g'li og'asini o'yotjoq bo'lip, bir so'z aytib turipti* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar.1-b). *Dali Mehtar ot ustida turip, yo'g'on ovoz minan Go'ro'g'lini o'yotjoq bo'p, bir so'z aytib turipti* (Ahmad baxshi, Qirq minglar.14). *Go'ro'g'li chaman yobining ustinda turip, kapchani soz etip, bir so'z aytti* (Ahmad baxshi, Qirq minglar.17-b). Bu metonimiyaning yana bir xususiyati doimo *bir* so'zi bilan qo'llanishidir.

Ayrim o'rinlarda *so'z* o'rnida *g'azal* so'zi qo'llanadi, ba'zida dostonidagi she'r g'azal emas, ular ko'pincha barmoq vaznidagi to'rtliklardan tashkil topadi. Bu o'rinda *g'azal she'r* ma'nosida qo'llanadi: *Borsa, Go'ro'g'li og'asi yetti kunlik uyqusinda uxlab yotgan ekan. Gulshirinjon og'asini o'yotjoq bo'ldi. Vu vaxtinda Gulshirinjon alina sozini op, bir g'azal aytti* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar.5-b).

Bulardan ko'rinadiki, doston matnlarida qo'llangan metonimiyalar lingvistik metonimiyalardir. Ularning qo'llanishi badiiy tasvirga emas, balki qayta nomlashga xizmat qilmoqda. Faqat *tomoq* so'ziga sifatdosh oboroti tarkibida kelib, so'fiylarni xarakterlashga xizmat qilgan.

Xulosa

Dostonlar tilida leksik birliklar epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya vazifasiga jalb qilinadi. Ular doston personajlarining tashqi qiyofasi, muvaqqat vaziyatdagi ko'rinishi, oshiq va ma'shuqaning go'zalligini tavsiflashga, shaxslarning u yoki bu belgisini bo'rttirishga, ulug'lash yoki kamsitishga xizmat qiladi.

Ularda evfemizmlarning qo'llanishi ham tinglovchilar tarkibining turli jins va yoshga mansubligi-tinglovchilar auditoriyasining talab va ehtiyojlariga, etik va estetik talablariga mos va muvofiq tarzda kechadi. O'z nomi bilan ochiq aytish mumkin bo'lmagan harakat va holatlar, tushunchalar ifoda pardasiga o'ralib taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili stilistikasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1983. 239- b.
2. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1979. 294- b.



3. Korolkov V.I. K teorii figur//Nauch. Tr. Mosk. gos. ped. ip-t inostr. yaz. im.Morisa Toreza. -Vsh.78. - 1973. s- 72.
4. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. -Toshkent: Fan, 1976. – 88- b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2- t. T. 2 -Moskva: Rus tili, 1981. -715- 6.
6. Shamsiddinov H. O‘zbek tilida so‘zlarning funksional-semantik sinonimlari. Filol. fanlari dokt. dis. - Toshkent, 1999. - 280 b.
7. Yazikovaya nominatsiya (vidi naimenovaniy). -Moskva: Nauka, 1977. s-386.
8. Ro‘zimboev S.R. Xorazm dostonlari. -Toshkent: Fan. 96- b.